

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 67 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Iloxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	



FISKAL SIYOSAT TAHLILI: AHOLI BANDLIGI; AHOLI DAROMADLARI; SOLIQQA TORTISH

Isroilov Boxodir Ibragimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori.
iqtisod fanlari doktori

Navruzova Farogʻat Abdihamid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Fiskal siyosat nafaqat davlat budjetini toʻldiruvchi, balki iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi instrument ham hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning aholi bandligini taʼminlash borasidagi vazifalari ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mazkur masala koʻplab ilmiy tadqiqotlarning obyekti sifatida oʻrganilmoqda. Mualliflar ushbu maqolada aholi bandligi, daromadlarning shakllanishi va soliqqa tortish tizimining oʻzaro bogʻliqligi hamda mavjud muammolarni tahlil qilgan. Tadqiqotlar natijasida fiskal siyosatning aholi bandligi, daromadlarning shakllanishi va soliqqa tortish tizimi bilan uzviy aloqasi asoslab berilgan. Mazkur masalaga doir mualliflik qarashlari bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: fiskal siyosat; soliqlar; aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish; davlat budjeti.

Abstract: Fiscal policy is not only an instrument that complements the state budget, but also regulates economic relations. In a market economy, the importance of the tasks of the state in ensuring the employment of the population increases. Therefore, this issue is being studied as an object of many scientific studies. By the authors, the article explores the issues of population employment, the formation of income and the interdependence of the taxation system, as well as existing problems. As a result of the studies, the relationship of fiscal policy with the system of employment of the population, the formation of income and taxation is based. The author's views on this issue are described.

Key words: fiscal policy; taxes; population employment; population income; taxation; state budget.

Аннотация: Фискальная политика является не только дополнением к государственному бюджету, но и инструментом регулирования экономических отношений. В условиях рыночной экономики возрастает важность задач государства по обеспечению занятости населения. Поэтому данный вопрос изучается как объект многих научных исследований. В статье авторами исследуются вопросы занятости населения, формирования доходов и взаимозависимости системы налогообложения, а также существующие проблемы. В результате проведенных исследований обоснована взаимосвязь фискальной политики с системой занятости населения, формированием доходов и налогообложением. Изложены взгляды автора на этот вопрос.

Ключевые слова: Ключевые слова: фискальная политика; налоги; занятость населения; доходы населения; налогообложение; государственный бюджет.

KIRISH

Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda aholi sonining yuqori surʼatlarda oʻsishi mehnat bozoriga katta bosim oʻtkazib, aholining ish bilan bandlik masalasidagi mavjud keskinlik yanada kuchayishiga sabab boʻlmoqda. Shu bois, dunyo mamlakatlari qatori, Oʻzbekistonda ham aholi bandligini taʼminlash dolzarb masalalardan biri sifatida eʼtirof etiladi.

Jahon iqtisodiyoti yangi bosqichga koʻtarilib, raqamli iqtisodiyot koʻlami kengayib borayotgan hozirgi vaqtda qulay soliq muhitini yaratish, soliq yukini optimallashtirish, soliqqa tortishni soddalashtirish, soliq maʼmuriyatchiligi shaffofligini oshirish, innovatsion faoliyatni ragʻbatlantirish, samarali soliq-budjet siyosatini shakllantirish orqali iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlarini elektron hisobda yuritish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini rivojlantirishda samarali soliq rejimlaridan foydalanish va soliq solish metodologiyasini takomillashtirish kabi yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Oʻzbekistonda ham soʻnggi yillarda soliq siyosatini takomillashtirish orqali “yashirin iqtisodiyot” ulushini kamaytirish, “fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida toʻlashdan manfaatdor boʻlishi” [1] uchun ish haqi



va daromadlarning elektron hisobini yuritishga o'tish hamda jismoniy shaxslar uchun soliq solish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi – davlat qarzini tartibga solish bo'yicha xalqaro tajribani tahlil qilish va uning iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sirini kamaytirish yuzasidan qarashlarni bayon etishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun empirik tahlil, ekonometrik modelashtirish va sifatli baholashni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvlardan foydalaniladi. Davlat qarzining tuzilmasi va dinamikasini tahlil qilishda xalqaro institutlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi hamda Statistika agentligi ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bandlik masalasi, aholining ish bilan bandligini ta'minlashda mavjud muammolar yechimlari bo'yicha olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. B.D. Breev [2] o'z tadqiqotlarida norasmiy bandlik va uning davlat moliyasiga ta'sirini o'rgangan. V.N. Salin va V.V. Narbut [3] bandlik va ishsizlikni tahlil qilish asosida norasmiy bandlikning iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bog'liqligini o'rganib, uning evaziga yo'qotiladigan budjet daromadlari darajasini aniqlagan.

Biroq ushbu o'rinda ta'kidlash zarurki, norasmiy bandlik natijasida budjet yo'qotadigan daromad miqdori hududning rivojlanish darajasi, aholining o'rtacha daromadlari va iqtisodiy salohiyatiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli, faqat bir hududdagi tadqiqot natijasiga asoslanib, mamlakat miqyosida umumiy xulosa chiqarish noto'g'ri bo'ladi.

Ye.A. Dolgix [4] o'z tadqiqotlari natijasida ishsizlik va yoshlar jinoyatchiligi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligini aniqlagan. Xitoylik olimlar P. Ge, W. Sun va Z. Zhao [5] jamiyatdagi demografik o'zgarishlarning aholining ish bilan ta'minlanishiga ta'sirini hamda o'zaro hamkorlikdagi harakatlar oqibatlarini tahlil qilgan. Tadqiqotlarida malaka talab qiladigan va talab qilmaydigan ish turlaridagi bandlikdagi o'zgarishlarga baho berilgan.

Ushbu olimlarning tadqiqotlari asosan aholi bandligi masalasini yoritishga qaratilgan. Biroq, aholi bandligini oshirishning fiskal xususiyatlari, mehnatni rag'batlantirishdagi moliyaviy mexanizmlar roli va ularning o'zaro bog'liqligi masalalari chuqur tadqiq etilmagan.

Djasper Grashuis (J. Grashuis) [6] COVID-19 pandemiyasi davrida o'z-o'zini ish bilan ta'minlashning davomiyligi, raqobatbardoshligi va daromadliligi holatini aholi jinsi, irqi, ma'lumot darajasi kabi ko'rsatkichlar kesimida tahlil qilgan. Olim o'z tadqiqotlari natijasida o'z-o'zini band qilishning davomiyligi, raqobatbardoshligi va daromadliligi o'zaro bog'liq ekanligini asoslab bergan.

O'zbekiston mehnat va xizmat ko'rsatish bozorida o'z-o'zini ish bilan ta'minlashning aholi bandligi hamda budjet daromadlarini shakllantirishdagi o'zaro bog'liqligi asosida Djasper Grashuis tadqiqotlari natijasida bildirilgan xulosalar dolzarb ekanini aniqlangan.

Mamlakatimizda aholi bandligini oshirish vazifasi muhim ahamiyat kasb etgani bois, bu yo'nalishda mahalliy olimlar tomonidan ham bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, D.A. Nasimov [7] raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlikning uslubiy asoslarini takomillashtirish, M.K. Abdullaev va D.B. Begalovlar [8] demografik o'sish sharoitida bandlikni ta'minlash masalalarini, S.A. Bozorova [9] xizmat ko'rsatish va servis sohalarining aholi bandligini oshirishdagi rolini, A. Tashpulatov, Sh.R. Xolmuminov, B.X. Umurzakov va T.A. Maxmudovlar [10] qishloq aholisi bandligi va norasmiy bandlikni kamaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini, T. Mamatqulov [11] esa mamlakatimizda ishsizlik darajasi, uning o'zgarish tendensiyalari hamda bandlik sohalarini bo'yicha tahlillarni amalga oshirgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotlar natijasida mamlakatimizda mavjud bandlik muammolari aniqlangan va ularni bartaraf etish, xususan aholi bandligini oshirish hamda ishsizlik darajasini kamaytirishga doir takliflar ilgari surilgan. Biroq yuqorida qayd etilganidek, ushbu tadqiqotlarda aholi bandligi, o'z-o'zini band qilish va budjet daromadlarining shakllanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari kompleks tarzda o'rganilmagan.

Ma'lumki, O'zbekiston kabi aholining o'sish sur'ati yuqori bo'lgan hamda rivojlanayotgan davlatlarda aholining ish bilan ta'minlanishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Mamlakatda ish o'rinlarining yetishmasligi, oylik maoshlarning pastligi, mehnat resurslarining kasbiy malakasi va bilim saviyasining yetarli emasligi, norasmiy bandlik darajasining o'sishi, konvert usulida ish haqi to'lanishi va ularning soliqqa tortilmasligi kabi muammolar mavjud.



Ushbu muammolar bugun nafaqat O'zbekiston iqtisodiyotida, balki barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun xos ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolardir. Masala ushbu davlatlardagi muammolar darajasiga qarab baholanadi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar mazkur muammolarning iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy holatga salbiy ta'sirini bartaraf etadigan darajagacha kamayishini ta'minlashi maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bandlik siyosatining Yevropa, Skandinaviya va Amerika modellariidan foydalaniladi [12].

Yevropa modeli – mehnat unumdorligi oshishi bilan birga ishchilar sonining kamayishi va ularning daromadlarining ko'payishini nazarda tutadi. Ushbu model xodimlar mehnat samaradorligini oshirishga rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

Skandinaviya modeli – davlat sektorida o'rtacha ish haqi darajasida ish o'rinlari yaratish orqali deyarli barcha muhtojlarni ish bilan ta'minlashga asoslangan. Mazkur model sobiq Ittifoq davridagi bandlik siyosati modeliga ma'lum darajada o'xshaydi. Ushbu yondashuv ishsizlikni kamaytirishi mumkin, biroq xodimlarning samarali mehnatiga rag'bat bermaydi.

Amerika modeli – iqtisodiy faol aholining katta qismi uchun yuqori mahsuldorlikni talab qilmaydigan ish o'rinlarini yaratishga asoslangan. Bunda ishsizlik kamayadi, ammo kam daromadli aholi soni ortadi. Ushbu model mazmun jihatidan Skandinaviya modeliga o'xshashdir.

O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida aholining bandligini ta'minlash har doim ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelgan. Mamlakatimizda bu borada bir qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ichki omillar nuqtayi nazaridan, aholining bandligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari yakka tartibdagi tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik va o'z-o'zini band qilishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Tashqi omillar sifatida esa MDH mamlakatlari, Yevropa, Kanada, Yaponiya va Koreya kabi rivojlangan mehnat bozorlariga malakali kadrlar yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning tashqi mehnat bozoriga ishchi kuchini yetkazib berish bo'yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlari bandlikni ta'minlash, aholi daromadini oshirish bilan birga quyidagi ijtimoiy ahamiyatga ham ega:

Mamlakatga kirib keladigan valyuta hajmi oshadi;

Xorijda ishlayotgan fuqarolarning amaliy tajribasi ortadi, bu esa ularning daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

Xorijdan keladigan daromadlar hisobiga oilaviy farovonlik oshadi;

Oila a'zolarining inson kapitaliga investitsiya kiritish imkoniyatlari kengayadi;

Shaxslar biznesga investitsiya kiritib, qo'shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi;

Qo'shimcha ish o'rinlari yaratish imkoniyati tug'iladi;

Aholi o'z malakasini oshirishga ko'proq qiziqish bildiradi;

Mamlakatdagi ijtimoiy muhitda ijobiy o'zgarishlar yuzaga keladi.


Mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini shakllantirish va iqtisodiy faollikni oshirish orqali budjetga qo'shimcha mablag'lar jalb etish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ularning natijasida o'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatga olish va ularning mehnat stajini hisoblash tartibi soddalashtirildi. Mazkur turdagi mehnat faoliyatidan olinadigan daromadlar jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmasligi hamda soliqqa tortilmasligi belgilab qo'yilgan.

Tadqiqotlar davomida olib borilgan tahlillar natijasida mamlakatimizda aholining o'z-o'zini band qilishga qiziqishi ortib borayotgani va bu faoliyat orqali daromad olish darajasida sezilarli o'sish kuzatilayotgani aniqlandi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda daromad solig'i to'laydigan xodimlar soni 6,3 million kishiga yetdi. Aholining mustaqil faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida o'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat turlari 67 tadan 104 taga yetkazildi. Natijada 2025-yil 1-may holatiga ko'ra, o'zini o'zi band qilgan fuqarolar soni qariyb 5 million 184 ming nafarni tashkil etdi.

Shuningdek, aholining bandligini ta'minlashga doir islohotlar norasmiy bandlik darajasining kamayishiga ham xizmat qilmoqda. O'zini o'zi band qilish faoliyat turlarining kengaytirilishi natijasida 2025-yil 1-may holatiga ularning rasmiy ro'yxatdan o'tganlar soni 5 million 184 ming nafarga yetgan bo'lib, shundan 775 ming nafardan ortig'i faoliyatini legallashtirgan taksistlardir.

Aholi bandligi bilan bir qatorda, ularning daromadlari o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish darajasida bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, tadqiqotimizda aholi daromadlari tarkibi, ularning manbalari va soliqqa tortilish masalalari ham o'rganildi.

Iqtisodiy adabiyotlarda aholi daromadlari tarkibini o'rganishda turli nazariy yondashuvlar mavjud. Jumladan, klassik nazariyalarda aholi daromadlari 4 guruhga ajratiladi (1-rasm).

1-rasm. Aholi daromadlari tarkibi tasnifi¹

Soliqqa tortish nuqtayi nazaridan daromadlarni tasniflash bo'yicha ham turli yondashuvlar mavjud. Klassik iqtisodchilardan D. Rikardo soliqlar haqida "...soliqlar unumsiz tuproq, yomon ob-havo, faollik yoki uddaburonlik yetishmasligi, ish o'rinlarining noto'g'ri taqsimoti kabi omillar bilan bir xil ta'sir kuchiga ega..." deya fikr bildiradi. D. Rikardo va A. Smit nazariyalarida davlat xizmatlari "unumsiz mehnat" deb baholanadi va ular "unumli mehnat"ga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida ko'riladi.

J. Keynes, D. Lokk, V. Retti kabi olimlar jismoniy shaxslarga progressiv soliq solish eng yuqori darajada ijtimoiy adolatga erishish va daromadlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirishga xizmat qiladi, degan nazariy qarashlarni ilgari surgan. Ammo R. Masgreyv, I. Gorskiy, V. Ranskov kabi olimlar progressiv soliq shkalasini joriy etish muammoning yagona yechimi emas, deb hisoblaydi. Ularning fikricha, "ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda daromadga solinadigan soliqning qayta taqsimlovchi salohiyatidan foydalangan holda, adolat tamoyillarini qaror toptirish uchun soliqning progressiv stavkasini soliq chegirmalari bilan birgalikda qo'llash eng maqbul yo'l hisoblanadi".

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga beriladigan imtiyozlarning aholi daromadlarini oshirishdagi roli ham o'rganilgan. Harley L. Lutzning ta'kidlashicha, davlat budjeti daromadlarining asosiy qismini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tashkil etishi lozim. Muallifning fikriga ko'ra, aholi daromadlarini oshirish maqsadida soliq imtiyozlari deklaratsiya asosida taqdim etilishi va shuningdek, aholi tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy xarajatlarga nisbatan ham soliq imtiyozlari berilishi zarur.

Tomas Piketti (Thomas Piketty) va Nensi Syan (Nancy Qian) [13] 1986–2008-yillarda Xitoyda, 1986–2015-yillarda esa Hindistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (JShDS) bo'yicha soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor, aholi o'rtacha daromadi va yuqori daromadli qatlamlar daromadlarining o'sish tendensiyasini tahlil qilgan. Ularning tahlillari asosida Xitoyda indekslanmagan (progressiv) soliq shkalasi amaliyoti sababli JShDS to'lovchilar soni 2008-yilda 20 foizga yetgani (1986-yilda atigi 0,1 foiz) aniqlangan. Olimlar Hindistonda esa 2015-yilga kelib soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorning o'zgarishi natijasida daromad solig'i to'lovchilarining yalpi ichki mahsulotga nisbati va aholi sonidagi ulushi deyarli o'zgarmaganini ko'rsatgan. Xitoyda esa aholi daromadlarining o'sishi shu tarzda davom etsa, 2015-yilda daromad solig'i tushumlari YAIMga nisbatan 9 foizga ortishi prognoz qilingan.

J. Mirrlis (Mirrlees) [14] o'zining monetar va soliqqa tortish nazariyalari, institutsional iqtisodiyotga oid ilmiy ishlanmalarida ochiq iqtisodiyotga ega kichik davlatlarda chet el tovarlariga tarif qo'llash maqsadga muvofiq emasligini va mehnat hamda kapitalga solinadigan soliqlar natijada bevosita iste'molchilar zimmasiga tushishini asoslaydi. J. Mirrlis va uning tarafdorlari, jismoniy shaxslarning daromadlarini oshirishda soliqlarning chiziqli va proporsional shkalalaridan optimal tarzda foydalanish zarurligini ta'kidlaydi.

Fikrimizcha, Tomas Piketti, Nensi Syan va J. Mirrlisning jismoniy shaxslar daromadlari hamda mehnat va kapitalga solinadigan soliqlar oqibatlarini to'g'risidagi nazariy qarashlari aholi bandligini ta'minlash va daromadlarning shakllanishida fiskal instrumentlar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini asoslaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliqqa iqtisodiy tushuncha sifatida turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, jismoniy shaxslarga daromad solig'ini solish – bu yangi yaratilgan qiymatning ma'lum qismini olish va qayta taqsimlash jarayonidir.

Tadqiqotlarimiz davomida aholi daromadlarini tasniflashga oid nazariy qarashlar ham o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu borada olimlar o'rtasida yagona to'xtam mavjud emas.

1 Ўлмасов А. Оила иқтисоди. –Т.: «Меҳнат», 1998. – 16 б.



N.Ya. Artikova o'z tadqiqotlarida jismoniy shaxsning umumlashgan yillik daromadlarini 3 asosiy guruhga ajratadi va har bir guruhga kiritilishi zarur bo'lgan daromad turlarini tavsiya etadi. Uning fikricha, tovar sotishdan tushgan daromadlar, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar umumlashgan yillik daromadlar tarkibiga kiritilishi, shuningdek, mol-mulkdan keladigan daromadlarga fuqarolarning o'zlariga tegishli mol-mulkni sotishdan yoki intellektual mulkdan foydalangan holda olgan daromadlari ham kiritilishi maqsadga muvofiqdir [15].

N.Ya. Artikova fikriga qisman qo'shilish mumkin, chunki jismoniy shaxslar faqat intellektual mulkdan emas, balki o'z intellektual kapitalidan ham daromad oladi. Afsuski, bu turdagi daromadlar qaysi guruhga mansubligi ko'p hollarda aniqlanmagan holda qolmoqda.

Mazkur masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda U.S. Yuldasheva "aholi daromadlari shakllanishi strukturasi ustuvor nisbatlar, mehnat natijalari taqsimoti qonuni faoliyatida hali to'liq shakllanmagan", degan xulosani bildiradi. Uning ta'kidlashicha, o'tish davridagi taqsimot munosabatlaridagi o'zgarishlar natijasida aholining umumiy pul tushumlariga nisbatan mehnat ulushining qisqarishi vaqtincha bo'lib, yil yoki yarim yil oralig'ida 10 foiz atrofida o'zgarishi mumkin [16].

Ta'kidlash joizki, U.S. Yuldasheva tomonidan ilgari surilgan xulosalar qanday manbalar, faktlar yoki iqtisodiy qonuniyatlarga asoslangani aniq ko'rsatilmagan. Shu sababli, ushbu xulosa va qarashlar munozarali deb hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholi turmush darajasini yaxshilash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida ham xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish uchun mehnatga munosib haq to'lash tizimini shakllantirish va aholi real daromadlarini oshirish zarurligi ta'kidlangan [17].

Fiskal siyosatning aholi bandligi, ularning daromadlarining shakllanishi va budget daromadlari o'sishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimiz ushbu ko'rsatkichlarning har biri o'zgarishi qolgan ko'rsatkichlarga ham ta'sir ko'rsatishini ko'rsatmoqda. Shu bois, davlat fiskal siyosatiga faqat budget daromadlarini shakllantirish vositasi sifatida qarash iqtisodiy o'sishning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromadlarini yagona stavkada soliqqa tortish amaliyotini ularning daromadlariga proporsional tarzda tabaqalashtirish, shuningdek, ish haqi fondiga hisoblanadigan soliq yukini regressiv stavkalar asosida pasaytirish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Mazkur tavsiyalarni amaliyotga joriy etish aholining kam daromadli qatlamlari uchun soliq yukini kamaytirishga, ish haqi fondiga tushadigan soliq yukining qisqarishi hisobiga norasmiy bandlik darajasining pasayishiga hamda aholi rasmiy bandlik darajasining oshishiga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019. 17-бет.
2. Бреев Б.Д. Занятость населения в России: современность и перспективы // Экономическая наука современной России. №4, 2001. 59-74 с.
3. Салин В.Н., Нарбут В.В. Неформальная занятость населения России: оценка масштаба и влияния на государственные финансы страны // Финансы: теория и практика. Том 21, № 6, 2017. – 60-69 с.
4. Долгих Е.А. Статистический анализ занятости и безработицы в Российской Федерации. Автореферат, дисс. канд. экон. наук, М.: ГУУ, 2010.
5. Ge P., Sun W., Zhao Z. Employment structure in China from 1990 to 2015 // Journal of Economic Behavior & Organization. Vol. 185, May 2021. – 168-190 p
6. Grashuis J. Self-employment duration during the COVID-19 pandemic: A competing risk analysis // Journal of Business Venturing Insights. Vol.15 (e00241), 2021. – 1-9 p.
7. Насимов Д.А. Рақамли иқтисодиёт шароитида бандликнинг замонавий шакллари жорий этиш методологик-услубий асослари тақомиллаштириш. И.ф.д. (DSc) дисс.си автореферати, Т.: СамДУ – 2020.
8. Абдуллаев М.К., Бегалова Д.Б. Ўзбекистон Республикасида аҳоли бандлигини таъминлашдаги долзарб масалалар // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» Илмий электрон журнали. № 2, 2021. – 114-120 б
9. Бозорова С.А. Аҳолининг иш билан бандлигини оширишда хизмат кўрсатиш соҳаларининг ўрни // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. № 3 (00035), 2018. – 1-7 б.
10. Ташпулатов А. Қишлоқ меҳнат бозорини прогностлаштириш усуллари // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» Илмий электрон журнали. № 5 (00049), 2020. – 70-76 б., Холмуминов Ш.Р., Умурзаков Б.Х., Махмудов Т.А. Қишлоқ жойларда аҳолини норасмий иш билан бандлигини камайитиришнинг стратегик ижтимоий-иқтисодий аҳамияти / «Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг замонавий йўналишлари» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференциясининг илмий мақолалар тўплами. – Т.: «Инновацион ривожланиш наشريёт-матбаа уйи», 2020. – 26- 41 б.



11. Т.Маматкулов. Аҳолини иш билан бандлигини таъминлаш: муаммолар, таҳлиллار ва ечимлар. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 y., 86-93 б.
12. Васильева Е.Г. Рынок труда и занятость населения: проблемы и перспективы // “Nova Info” интернет журнал, № 62-1, 2017. <http://novainfo.ru/article/11932>
13. Thomas Piketty, Nancy Qian. Income Inequality and Progressive Income Taxation in China and India, 1986-2015.// American Economic Journal: Applied Economics. vol. 1, no. 2, April 2009. pp. 53–63.
14. Ж.Миррлис. Информация и стимулы: экономика кнута и пряника. // Мировая экономическая мысль. Сквозь призму веков. В 5 т./ Т. 5. В 2 кн. Кн. 2 — М.: Мысль, 2005. — С. 142—167.
15. Я.Артикова «Даромадларни солиққа тортиш жараёнидаги иқтисодий муносабатларни такомиллаштириш» иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент-2004. 67-бет.
16. У.С.Юлдашева «Иқтисодиётнинг трансформацияланиши жараёнида аҳоли даромадларининг шаклланиши ва тақсимланиши» иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент-2001. 67-бет.
17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга қилган мурожаатномаси. – 2018. <https://pm.gov.uz/uz/lists/view/203>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
